



ARIRANG FENOMENI: KOREYS MADANIYATIDA AN'ANAVIY MUSIQIY  
MEROSNING SEMANTIK VA MADANIY AHAMIYATI

**Xoshimjonova Gulruksor Shavkat qizi**

*TDSHU Koreyashunoslik oliy maktabi 1-kurs talabasi*

[gulruksorshavkatovna@gmail.com](mailto:gulruksorshavkatovna@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: PhD, dots.Yunusova G.D.**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Arirang qo'shig'ining koreys madaniyatidagi tarixiy-madaniy o'rni, semantik xususiyatlari va regional talqinlarining xilma-xilligi tahlil qilinadi. Arirang qo'shig'ining kelib chiqishi haqidagi etimologik nazariyalar, uning xalq og'zaki ijodi sifatidagi ahamiyati hamda Janubiy va Shimoliy Koreyada norasmiy milliy ramzga aylanganligi yoritiladi. Shuningdek, maqola Arirangning UNESCO tomonidan Nomoddiy Madaniy Meros sifatida e'tirof etilishi va uning zamonaviy global kontekstdagi madaniy ta'sirini ham yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Arirang, koreys musiqasi, an'anaviy qo'shiqlar, etimologiya, nomoddiy meros, koreys madaniyati.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается историко-культурное значение песни «Ариранг» в корейской культуре, её семантические особенности и разнообразие региональных вариантов. Анализируются основные этимологические теории происхождения термина «Ариранг», его роль как элемента народного устного творчества, а также причины превращения песни в неформальный национальный символ Южной и Северной Кореи. Особое внимание уделено включению «Ариранга» в Репрезентативный список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО и его влиянию в современном глобальном контексте.*

**Ключевые слова:** *Ариранг, корейская музыка, народные песни, этимология, нематериальное наследие, корейская культура.*

**Abstract.** *This article examines the historical and cultural significance of the song Arirang within Korean culture, focusing on its semantic features and the diversity of its regional variations. It analyzes major etymological theories related to the origin of the term Arirang, its role within Korean folk tradition, and the reasons behind its recognition as an informal national symbol in both South and North Korea. The study also highlights the inscription of Arirang on the UNESCO Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity and discusses its cultural impact in the modern global context.*

**Keywords:** *Arirang, Korean music, traditional songs, etymology, intangible heritage, Korean culture.*

Bugungi globallashuv jarayonida Janubiy Koreya madaniyati yoshlar orasida keng ommalashib, xususan k-pop sanoati orqali millionlab xalqaro muxlislarga ega bo'ldi. Garchi k-pop XX asr oxiri va XXI asr boshlarida keskin mashhurlikka erishgan bo'lsa-da, koreys



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



xalqining musiqiy an'analari bundan ancha qadim tarixga ega. Zamonaviy madaniy mahsulotlar – pop musiqasi<sup>50</sup>, filmlar, seriallar – Koreyaning xalqaro maydondagi “yumshoq kuchi”ni shakllantirayotgan bo'lsa, an'anaviy kuy va qo'shiqlar, xususan *Arirang*, koreys xalqining tarixiy-madaniy o'zligini belgilab beruvchi asosiy elementlardan biri bo'lib qolmoqda.

Arirangning tarixiy-madaniy o'rni haqida aytadigan bo'lsak, K-pop jahon reytinglarini egallashidan avval ham Koreyaning xalq og'zaki ijodi – *minyo* (xalq qo'shiqlari) madaniyatning markazida bo'lgan. Bu qo'shiqlar xalq hayoti, mehnati, muhabbati, ayriliq va orzu-umidlari bilan bevosita bog'langan holda shakllangan. Shular orasida *Arirang* eng keng tarqalgan va eng ko'p talqinlarga ega namunadir. Asrlar davomida rivojlanib kelgan mazkur qo'shiq Janubiy Koreya va Shimoliy Koreyada “norasmiy madhiyaga” tenglashtiriladi. 2012-yilda *Arirang* UNESCO tomonidan Insoniyatning Nomoddiy Madaniy Merosi ro'yxatiga kiritilgani<sup>51</sup> uning global darajadagi madaniy ahamiyatini yanada mustahkamlagan.

Arirang so'zining kelib chiqishi haqida yagona ilmiy xulosa mavjud emas. Tilshunoslik va leksikologiya nuqtai nazaridan uning etimologiyasi bo'yicha qariyb 30 ta nazariya ilgari surilgan. Bu nazariyalarning aksariyati so'zning qadimiy koreys tilidagi og'riq, ayriliq, sog'inch, his-tuyg'u kabi mazmunlar bilan semantik yaqinligini ta'kidlaydi. Masalan, ayrim tadqiqotchilar Arirang so'zini zamonaviy koreys tilidagi *아르다* (*arida*) fe'li bilan bog'lashadi<sup>52</sup>. Ushbu fe'l “ko'ngli og'rinoq”, “sog'inchdan qiynalmoq” kabi mazmunlarni bildiradi. Shu bois Arirang semantik jihatdan ko'ngil dardini, iztirobni, bir vaqtning o'zida esa xalqning chidamliligini ifodalovchi timsol sifatida talqin qilinadi.

Arirangning ma'nosi kabi uning musiqiy shakllari ham nihoyatda rang-barangdir. Tadqiqotlar bo'yicha Koreya bo'ylab Arirang nomi bilan ataladigan qariyb 3000 ta qo'shiq mavjud<sup>53</sup>. Har bir hudud – shahar, qishloq, tog'li yoki dengiz bo'yi – Arirangni o'ziga xos ohang va ritm bilan kuylaydi. Shu bois Arirang Koreyaning turli mintaqalarda ham boy, rang-barang madaniyligini aks ettiradi.

Eng mashhur variantlardan biri – Gyeonggi Arirang bo'lib, u Seul atrofida shakllangan deb hisoblanadi. Bu talqin chet ellik tinglovchilarga ko'pincha “standart” ko'rinishi sifatida tanishtiriladi va xalqaro maydonda eng keng tarqalgan shakl hisoblanadi. Aynan shu ko'rinish ko'plab filmlarda, konsertlarda, davlat marosimlarida va diplomatik anjumanlarda ijro etiladi. Shuning uchun ham Gyeonggi Arirang zamonaviy dunyoda koreys milliy musiqiy merosining eng tanilgan ramzi bo'lib qolmoqda.

<sup>50</sup> Kim K.-H., Chung J.-K. A study on 'Arirang': a Korean folk song that is being accepted worldwide // *European Journal of Science and Theology*. – 2023. – Vol. 19, №1. – P. 77-91.

<sup>51</sup> <https://ich.unesco.org/en/RL/arirang-lyrical-folk-song-in-the-republic-of-korea-00445>

<sup>52</sup> <http://www.domin.co.kr/1331506/>

<sup>53</sup> Yoo H., Kang S. Teaching the Korean Folk Song (Arirang) through performing, creating, and responding // *General Music Today*. – 2017. – Vol. 31, №1. – P. 16–25. – DOI: 10.1177/1048371317705163.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Arirang koreys xalqining tarixiy tajribasi, hissiy kechinmalari va madaniy o'zligini mujassam etgan universal musiqiy timsoldir. Uning etimologik murakkabligi, talqinlarining ko'pligi hamda mintaqaviy xilma-xilligi ushbu qo'shiqning xalq ongida nechog'li muhim o'rin tutishini isbotlaydi. Bugungi kunda k-pop global sahnada Koreya madaniyatini targ'ib etayotgan bir paytda, Arirang o'zining qadimiy ildizlari va chuqur semantik qatlamlari bilan koreys musiqiy merosining asosi sifatida ilmiy va madaniy qiziqish uyg'otishda davom etmoqda.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Kim K.-H., Chung J.-K. A study on 'Arirang': a Korean folk song that is being accepted worldwide // *European Journal of Science and Theology*. – 2023. – Vol. 19, №1. – P. 77-91.
2. Kamala Kodirova, Dilorom Sangirova, Gulshoda Yunusova, Umidbek Abdalov, Gulchexrabonu Isamova, I.B. Sapaev, Sabokhat Muratova, & Bexzod Isxakov. (2025). Multimodal Linguistics in Multimedia Signal Processing: Analyzing Text, Audio, and Visual Signals in Communication Systems. *National Journal of Antennas and Propagation*, 7(1), 123-133. <https://doi.org/10.31838/NJAP/07.01.17>
3. Yoo H., Kang S. Teaching the Korean Folk Song (Arirang) through performing, creating, and responding // *General Music Today*. – 2017. – Vol. 31, №1. – P. 16–25. – DOI: 10.1177/1048371317705163.
4. Park Yu. J. Three Local "Arirang" Songs as Models for Teaching Korean Music in the Classroom // *Music Educators Journal*. – 2013. – Vol. 100, № 2. – P. 45–51. – ISSN 0027-4321.
5. <http://www.domin.co.kr/1331506/>
6. <https://ich.unesco.org/en/RL/arirang-lyrical-folk-song-in-the-republic-of-korea-00445>
7. <https://theme.archives.go.kr/next/pages/arirang/arirang.pdf>